

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.31/28.06.2024.Ss.178.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

RO‘ZIYEVA GULSANAM SULTONMURODOVNA

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MAFKURAVIY
TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHNING SIYOSIY
MEXNIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

23.00.03 - Siyosiy madaniyat va mafkura

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract
of the Doctor of Philosophy (PhD) on political Sciences**

Ro‘ziyeva Gulsanam Sulonmurodovna

Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Рузиева Гулсанам Султанмуродовна

Совершенствование политических механизмов борьбы с идеологическими угрозами общественной безопасности.....27

Ruziyeva Gulsanam Sultanmurodovna

Improving political mechanisms for combating ideological threats to public security.....53

E‘lon qilingan ishlar

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.31/28.06.2024.Ss.178.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

RO‘ZIYEVA GULSANAM SULTONMURODOVNA

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MAFKURAVIY
TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHNING SIYOSIY
MEXNIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ss451 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ipkmvd.uz.) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov Habibullo Ibodullayevich
siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Turgunova Nasiba Tuychiyevna
siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

Davidov Umidjon Xasan o'g'li
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti huzuridagi DSc.31/28.06.2024.Ss.178.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100213, Toshkent sh., H.Boyqaro ko'chasi, 27-uy. Tel.: (71) 295-34-18; e-mail: ipkmvd.uz. Malaka oshirish instituti asosiy binosi 1-qavat, 3-xona.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100213, Toshkent sh., H.Boyqaro ko'chasi, 27-uy. Tel.: (71) 295-34-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.I.Paxrutdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

S.M.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., (DSc), dotsent

F.F.Xatamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, s.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar jamoat xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida mafkuraviy tahdidlar kuchayib, ekstremizm, radikal g'oyalar va milliy qadriyatlarga yo'naltirilgan mafkuraviy xurujlar jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu esa mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganish, tizimlashtirish va takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan, ma'naviy-mafkuraviy sohaning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi roli va uning samaradorligini oshirish masalalari siyosiy fanlar rakursida chuqur ilmiy tahlillar olib borishni talab etmoqda. Bu esa jamoat xavfsizligini ta'minlashda global va mahalliy yondashuvlarni tadqiq etishni, uyg'unlashtirishni, shuningdek mafkuraviy omillarni hisobga olishni taqozo etadi.

Jahonda jamoat xavfsizligini ta'minlash dolzarb global vazifa sifatida ilg'or ilmiy markazlar va strategik tadqiqot institutlarining e'tibor markazida qolmoqda. Bu yo'nalishda an'anaviy yondashuvlardan tashqari, mafkuraviy immunitet va ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan siyosiy madaniyat va milliy g'oya sohalari ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda faqat huquqiy va texnologik vositalar yetarli emas. Buning uchun mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish hamda fuqarolarning siyosiy madaniyati va ma'naviy-axloqiy barqarorligini mustahkamlash ham hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda milliy mafkuraviy qadriyatlarga tayanish va ruhiy barqarorlikni mustahkamlash huquqni muhofaza qilish xodimlarining mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi, ularning jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini yuksaltiradi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik munosabatlarini mustahkamlaydi. Bu, o'z navbatida, zamonaviy globallashuv sharoitida milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi. Fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongini rivojlantirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatli faollikni rag'batlantirish orqali jamiyatdagi mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurash mexanizmlarini takomillashtirish mumkin. Bu nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarining profilaktik ishlarini samarali tashkil etish, balki jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashning kompleks siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali siyosiy mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlagandek, "Ayni vaqtda hozirgi murakkab zamon tinch-osoyishta

hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda"¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 8-apreldagi F-5465-sonli "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni hamda BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil 12-dekabrda yalpi sessiyasida qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi maxsus rezolyusiyasi va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ilmiy adabiyotlarda turli darajada va yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lib, mavjud tadqiqotlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi turkum adabiyotlarga xorijiy mamlakatlar xususan, G'arb ilmiy maktablari vakillari tomonidan mafkura, xavfsizlik, jamoat xavfsizligi va ularning o'zaro aloqadorligi masalalari tahlil qilingan adabiyotlarni kiritish mumkin. Bu yo'nalishda A.To'ffler, M.Castells, J.Habermas, A.Toynbeye, U.Beck, E.Xeyvud, B.Anderson, Z.Bauman, M.Walzer, A.Wyendt, B.Buzan, R.Bellah, J.Rawls, C.Geyertz, M.Foucault, D.Byman, A.Harel, J.Marquardt va boshqa olimlarning

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // URL - <http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-taminlash-yurt-taraqqiyoti-va-xalq-farovonligining-garovi> --07-12-2016

asarlari¹ muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, E.Toffler zamonaviy jamiyatlarda bilim va axborot asosida dunyoni boshqarish mexanizmlarini tadqiq etgan bo'lsa, M.Kastells axborot jamiyati va tarmoq jamiyati dinamikasi doirasida mafkuraviy identifikatsiya masalalarini tahlil qilgan. J.Habermas kommunikativ aql konsepsiyasini taklif etib, jamoat xavfsizligini kommunikativ xavfsizlik bilan bog'lagan.

Ikkinchi guruh adabiyotlar sirasiga MDH mamlakatlari tadqiqotchilari ishlarini kiritish mumkin. Bu mamlakatlarda ham xavfsizlikning mafkur bilan bog'liq jihatlari dolzarb tadqiqot mavzusi bo'lib, bu yo'nalishda Yu.Nisnevich, G.Popov, I.Panarin, A.Torkunov, V.Lipkan, B.Aytjanov, S.Kurginyan, P.Dronov, A.Chesnokov, A.Kinyakin, K.Yaspers, N.Patrushev, A.V.Lubskiy, M.I.Kuznetsova, A.V.Melnikov, A.V.Rudakov, M.N.Dudin, N.V.Lyasnikov, V.N.Sidorenko² va boshqa olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraning o'rni, bu boradagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarining tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy asarlarni kiritish mumkin. Bu masala ilmiy jamoatchilik tomonidan turli nuqtai nazarlar va metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilib kelinmoqda. Jumladan, mahalliy olimlar tomonidan siyosiy madaniyat, mafkura,

¹ Toffler A. Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century. – New York: Bantam Books, 1990. – 560 p. – p. 145.; Castells M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell, 1997. – 496 p. – p. 157.; Habermas J. The Philosophical Discourse of Modernity. – Cambridge: Polity Press, 1990.; Toynbee A. A Study of History. – Oxford: Oxford University Press, 1948. – Vol. V. – p. 158; Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage Publications, 1992. – 260 p. – p. 21.; Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p. – p. 125.; Walzer M. Arguing About War. – New Haven: Yale University Press, 2004. – 208 p. – p. 154.; Wendt A. Social Theory of International Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 429 p. – p. 247.; Buzan B. People, States and Fear: An Agenda for International Security Studies in the Post-Cold War Era. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 1991. – 318 p. – p. 119.; Bellah R. Habits of the Heart: Individualism and Commitment in American Life. – Berkeley: University of California Press, 1985. – 355 p. – p. 284.; Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971; Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973.; Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – New York: Vintage Books, 1995.; Byman D. Terrorism in the Age of Globalization. Washington: Brookings Institution, 2021. P. 87-88. ; Harel A. A Threat to Cohesion: Intragroup Affective Polarization in Ideological Contexts.//Journal of Conflict Resolution. 2024;68(1):112-136.; Marquardt J. Institutionalizing climate change mitigation in the Global South: //Challenges and opportunities. International Journal of Sustainable Development. 2023;26(1):87-99.

² Нисневич Ю.Государство и общественная безопасность в условиях демократии. – М.: Норма, 2009. – 240 с. – С. 78.; Попов Г. Общественная безопасность: философия и реальность. – М.: Инфра-М, 2014. – 192 с. – С. 47.; Панарин И. Информационная война и геополитика. Москва: Поколение, 2018. С. 124-125.; Кургинян С. Смысл игры. – Москва: Эксмо, 2004. – 368 с. – С. 118; Дронов П.Социальная безопасность: философско-политологический анализ. – Москва: Наука, 2012. – 220 с. – С. 63; Чеснаков А.Философия безопасности. – Москва: Ленанд, 2015. – 256 с.; Кинякин А. Философия общественной безопасности. – Санкт-Петербург: Питер, 2013. – 192 с. – С. 59. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: Республика, 1994. – С. 52.; Патрушев Н. Основные направления идеологического противоборства в XXI веке // Международная жизнь. 2019. № 8. С. 22-23.; Лубский А.В. Институты высшего образования и формирование идеологической безопасности современного общества. Гуманитарий Юга России. 2020;9(3):72-85.; Кузнецова М.И. Культурные институты как фактор идеологической безопасности современного общества. Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. 2021;5(103):82-91; Мелников А.В. Религиозные институты и формирование духовно-нравственных ценностей в контексте обеспечения идеологической безопасности. Вестник Российской академии наук. 2020;90(7):651-663.; Рудаков А.В. Роль идеологического фактора в обеспечении национальной безопасности.//Социально-гуманитарные знания. 2022. -С.45.; Дудин М.Н., Лясников Н.В., Сидоренко В.Н. Вызовы и угрозы цифровой экономики для устойчивости национальной банковской системы.// Национальная безопасност. 2022;19(3):114-129.

milliy xavfsizlik paradigmasi, siyosiy ijtimoiylashuv, mafkuraviy barqarorlik va davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, Sh.Paxrutdinov “O‘zbekistonning xavfsizlik konsepsiyasi va uning mafkuraviy asoslari” nomli tadqiqotida¹, davlat xavfsizligi bilan milliy mafkura o‘rtasidagi uzviylikni tahlil etadi hamda “madaniy-milliy yondashuvsizlik xavfsizlik paradigmasida bo‘shliq hosil qiladi” degan fikrni ilgari suradi.

O‘zbekistonlik olimlardan R.Alimov, S.Otamuratov, M.Quronov, Q.Usmonov, S.Safojev, T.Jo‘rayev, Sh.Paxrutdinov, F.Tolipov, R.Jumayev, A.Fayzullayev, A.Jalilov, R.Samarov, J.U.Tashkulov, A.R.Raxmonov, S.M.Adilxodjajeva² va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda “mafkura xavfsizlik siyosatining ideologik bazasidir” degan nuqtai nazar ilgari surilgan bo‘lib, bu jihat bugungi kunda ayniqsa dolzarb hisoblanadi. U.Saidov esa o‘z tadqiqotida siyosiy madaniyatni “jamoaviy identifikatsiyaning eng muhim mexanizmi” sifatida ko‘rib, uni xavfsizlik strategiyasining tarkibiy elementi sifatida asoslaydi³. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan “mafkuraviy xavf-xatarlar milliy xavfsizlik uchun tashqi harbiy bosimlardan kam bo‘lmagan darajada xavflidir” degan g‘oya⁴ O‘zbekistonning xavfsizlik siyosatining g‘oyaviy asosini tashkil etadi. Bugungi kunda Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi asosida ham ma‘naviy yondashuvlar xavfsizlik paradigmasida muhim o‘rin egallamoqda⁵.

O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta‘minlashda mafkura sohasining samaradorligini rivojlantirishga doir tadqiqotlar nisbatan yetarli emas. Bu esa mavzuni alohida mustaqil ilmiy ob‘ekt sifatida ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Zotan, bugungi globallashuv sharoitida mafkuraviy xavfsizlik davlat siyosatining markaziy elementi sifatida maydonga chiqmoqda, bu esa uni siyosiy va mafkuraviy barqarorlikning tayanchi sifatida chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

¹ Paxrutdinov Sh. Xavfsizlik konsepsiyasi va mafkura. T.: Akademnashr, 2009. 45–59-betlar.

² Alimov R. Mintaqaviy xavfsizlik va siyosiy mafkura. T.: Fan, 2017. 14–119-betlar.; Alimov P.M. Проблемы формирования новой архитектуры региональной безопасности в условиях глобализации (на примере Центральной Азии): Автореф. Дисс... док. полит. наук. -Т., 2006.-50 с.; Otamuratov S. Mafkura va xavfsizlik paradigmasi. T.: Im ziyo, 76–88-betlar. Safojev S. Markaziy Osiёdaги геосиёсат.-Т.: ЖИДУ, 2005. -91 б.; Пахрутдинов Ш.И. Мустақиллик ва жамият тараққийига таҳдид муаммоси (сиёсий таҳлил тажрибаси). -Т., 1999.; Толипов Ф. Большая стратегия Узбекистана в контексте геополитический идеологической трансформации Центральной Азии. -Т.: Фан, 2005.; Жумаев Р.З. Конфликтология асослари. -Т.: Академия, 2000. - 207 б.; Файзуллаев А. Инсон, сиёсат, бошқарув. -Т.: Ўзбекистон, 1995.; Jalilov A.T. Yevroosiyo strategik muvozanatini tadqiq etishning geosiyosiy masalalari: Siyos. fan. dok. diss. avtoref. -Т., 2007. -49 s.; Ташкулов Ж.У. К вопросу о системности категории «национальная безопасность» // Хуқуқ-Право-Law. 2001. № 2.; Рахмонов А.Р. Международно-правовые аспекты обеспечения всеобъемлющей национальной безопасности Республики Узбекистан. Автореф. дисс.док.ю.н. -Т., 2001.; Кашинская Л.Ф. Государственность и национальная безопасность: проблемы теории. Т.: Академия МВД. 2003.; Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. -Т., ТГЮИ. 2007.

³ Saidov U. Siyosiy madaniyat va milliy xavfsizlik strategiyasi o‘zaro bog‘liqligining nazariy asoslari. O‘zbekiston siyosiy fanlari jurnalining ilmiy maqolalari to‘plami, №2, 2016.B. 51–65.

⁴ Karimov I.A.. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: O‘zbekiston, 1997. 27-bet.

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: Ma‘naviyat, 2020. 34–37-betlar.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti 2023-yil rejasining "3,10 va 4.15 bandlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish, zamonaviy mafkuraviy tahdidlarni aniqlash, ularga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamoat xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlarning nazariy-konseptual asoslarini o'rganish hamda zamonaviy sharoitda ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

O'zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning huquqiy-tashkiliy mexanizmlarini kompleks tahlil qilish va mavjud tizimning afzalliklari hamda kamchiliklarini belgilash;

mafkuraviy tahdidlarni baholash va monitoring qilishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda mavjud mexanizmlarning ishchanligini baholash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bo'yicha innovasion yondashuvlarni ishlab chiqish;

jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish va amaliy joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning ob'yektini O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti mafkuraviy tahdidlarning siyosiy mohiyati, ularning jamoat xavfsizligiga ta'siri, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining konseptual asoslari, siyosiy institutlar faoliyatining samaradorligi, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va siyosiy tizimni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, abstraktlikdan konkretlikka o'tish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolarni destruktiv g'oyalarning ta'siridan himoya qilish va jamiyat barqarorligini saqlashda mafkuraviy tahdidlarning yashirin tarqalish xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan kognitiv-psixologik dasturlar (tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish) orqali ijtimoiy ongdagi nosog'lom siyosiy radikallashtirishni erta tashxislash imkoniyatlari ilmiy asoslangan;

yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi mafkuraviy omillarga (psixologik, ijtimoiy, madaniy, raqamli-axborot, tengdoshlar hamda oilaviy muhit) ko'ra turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari, oila,

mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligiga asoslangan “Mafkuraviy tarbiya” texnologiyalari va monitoring mexanizmlarini (kuzatuv, tahlil) takomillashtirib borishning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi zarurati isbotlangan;

jamoat xavfsizligini ta’minlashda manipulyasiya va ma’naviy o’zlikni buzishga qaratilgan zamonaviy xavf-xatarlarni (destruktiv g’oyalar, ekstremistik kontentlar, begona madaniyat unsurlarini singdirish, milliy qadriyatlarni yemirish) tasniflash, aholi o’rtasida axborot xurujiga qarshi ijtimoiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslangan doimiy profilaktik chora-tadbirlar o’tkazib borishning samaradorlik mexanizmlari ochib berilgan;

jamoat xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashda bilim va e’tiqodga asoslangan tizimli (zamonaviy media-texnologiyalar asosida bag’rikenglikni targ’ib etish va milliy an’analarni o’rgatish) konsepsiyani yaratish hamda uning uzluksiz ta’lim tizimi bilan integratsiyalashuvi asosida jamiyatning siyosiy-mafkuraviy immunitetni oshirib borish mexanizmlari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratish bo’yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda mahalliy sharoitga moslashtirish yuzasidan shuningdek, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish bo’yicha konseptual hujjatlar loyihalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan;

axborot xavfsizligini ta’minlash va kibermakonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish shuningdek, siyosiy madaniyat, milliy mafkura, ma’naviy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi, fuqarolik ongini shakllantirishga oid o’quv-modullarga integratsiya qilish uchun metodik asos sifatida foydalanish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqotda qo’llangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to’plamlari, OAK ro’yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o’quv qo’llanma, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jamoat xavfsizligini ta’minlash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini samarali tashkillashtirish usullari hamda mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida mafkuraviy tahdidlarning siyosiy mohiyati, ularning zamonaviy ko’rinishlari va jamoat xavfsizligiga ta’siri bilan bog’liq nazariy qarashlar tizimlashtirilib, soha bo’yicha ilmiy-konseptual asoslar takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligini ta’minlash va mafkuraviy sohadagi davlat siyosati tizimini

yanada rivojlantiruvchi siyosiy institutsional tizimi elementlarining funksional integratsiyalashuvini kuchaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholi o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar sifatida qo'llash mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa va takliflar asosida:

jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolarni destruktiv g'oyalarning ta'siridan himoya qilish va jamiyat barqarorligini saqlashda mafkuraviy tahdidlarning yashirin tarqalish xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan kognitiv-psixologik dasturlar (tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish) orqali ijtimoiy ongdagi nosog'lom siyosiy radikallashtirishni erta tashxislash imkoniyatlari ilmiy asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 25-fevraldagi 10/151-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, respublikada yoshlarga qaratilgan mafkuraviy-ma'naviy targ'ibot ishlarining ideologik aniqligi va konseptual izchilligi oshirishga xizmat qilgan;

yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi mafkuraviy omillarga (psixologik, ijtimoiy, madaniy, raqamli-axborot, tengdoshlar hamda oilaviy muhit) ko'ra turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligiga asoslangan "Mafkuraviy tarbiya" texnologiyalari va monitoring mexanizmlarini (kuzatuv, tahlil) takomillashtirib borishning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi zarurati isbotlanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 12-fevraldagi 03/17-361-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar ongida milliy identitet va ma'naviy immunitetni mustahkamlovchi siyosiy-madaniy muhit shakllanishiga xizmat qilgan;

jamoat xavfsizligini ta'minlashda manipulyasiya va ma'naviy o'zlikni buzishga qaratilgan zamonaviy xavf-xatarlarni (destruktiv g'oyalar, ekstremistik kontentlar, begona madaniyat unsurlarini singdirish, milliy qadriyatlarni yemirish) tasniflash, aholi o'rtasida axborot xurujiga qarshi ijtimoiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslangan doimiy profilaktik chora-tadbirlar o'tkazib borishning samaradorlik mexanizmlari ochib berilganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining 2025-yil 14-fevraldagi 3504/13-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktik chora-tadbirlar salohiyatining oshirilishiga xizmat qilgan;

jamoat xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda bilim va e'tiqodga asoslangan tizimli (zamonaviy media-texnologiyalar asosida bag'rikenglikni targ'ib etish va milliy an'analarni o'rgatish) konsepsiyani yaratish hamda uning uzluksiz ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuvi asosida jamiyatning siyosiy-mafkuraviy immunitetni oshirib borish mexanizmlari asoslab berilganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2025-yil 3-fevraldagi 1-150-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, barqarorlikni mustahkamlovchi strategik kommunikatsiyalar tizimining joriy qilinishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (jumladan, 8 ta respublika 4 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jamoat xavfsizligi va mafkuraviy tahdid tushunchalarining nazariy-konseptual asoslari**" deb nomlangan. Zamonaviy siyosiy-falsafiy tafakkurda jamoat xavfsizligi masalasi nafaqat institutsional va huquqiy chora-tadbirlar doirasida, balki ijtimoiy ong, mafkura va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Global xavfsizlik muhitida yuzaga kelayotgan murakkab tahdidlar va ijtimoiy-siyosiy beqarorliklar fonida jamoat xavfsizligining mazmuni tobora g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-axloqiy va ma'naviy omillar bilan boyib bormoqda. Bu esa jamoat xavfsizligi tushunchasini falsafiy, siyosiy, sotsiologik, psixologik va madaniy-ma'rifiy jihatlardan kompleks o'rganishni taqozo etadi.

Jamoat xavfsizligining konseptual asoslarini anglash uchun uning tarixiy-falsafiy ildizlariga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi davrlardan buyon Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Xaldun¹ kabi mutafakkirlar jamiyat tartibi, davlat xavfsizligi, inson huquqlari va erkinliklari masalalarini o‘rganib kelganlar. Zamonaviy jamoat xavfsizligi nazariyalari esa globallashtirish, raqamli texnologiyalar va ko‘p qutbli dunyo sharoitida yangi talqinlarga ega bo‘lmoqda.

Jamoat xavfsizligi ijtimoiy ong, ma’naviyat, e’tiqod va milliy o‘ziga xoslik kabi hodisalar bilan bevosita bog‘langan. Shunga ko‘ra, jamoat xavfsizligi nafaqat tashqi tahdidlar, balki ichki ma’naviy zaifliklarga qarshi kurashni ham nazarda tutadi. Biroq “ichki ma’naviy zaiflik” faqat individual darajada emas, balki ommaviy mafkuraviy manipulyatsiyalar natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Bu esa jamoat xavfsizligining kompleks tabiatini ko‘rsatadi.

Jamoat xavfsizligi tushunchasi zamonaviy siyosiy-falsafiy tafakkurda nafaqat huquqiy yoki ijtimoiy muhofaza mezonini, balki jamiyatni ideologik, madaniy va kommunikativ barqarorlik holatida ushlab turuvchi asosiy metafizik vositadir. Uning zamonaviy talqini tobora murakkab global va lokal dinamikalarning kesishgan nuqtasiga aylanib bormoqda. Bu kategoriya ijtimoiy barqarorlikni saqlashdan tashqari, fuqaroning o‘zligini anglash, jamiyatdagi mavqei va rolini shakllantirish, mafkuraviy tanlov erkinligini kafolatlashda muhim o‘rin tutadi.

Jahon miqyosida - xususan, Harvard Kennedy School, RAND Corporation, Carnegie Endowment for International Peace, Brookings Institution kabi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida xavfsizlikni ta’minlash masalalari endi faqat harbiy yoki huquq-tartibot idoralari doirasida emas, balki ijtimoiy psixologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, siyosiy ijtimoiylashuv, mafkuraviy barqarorlik kabi omillar orqali kompleks o‘rganilmoqda. Masalan, RAND Corporation tomonidan tayyorlangan “Community Policing and the Role of Civil Society” nomli tahliliy hisobotda jamoat xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy-mafkuraviy omillar jamoaviy ongni shakllantirishda, ijtimoiy ko‘makni kuchaytirishda va ekstremistik g‘oyalarga qarshi immunitet yaratishda strategik resurs sifatida baholangan².

BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi (UNODC) ham xavfsizlik konsepsiyasini ma’naviyat bilan uzviy bog‘lab, jinoyatchilikning ildizlarini mafkuraviy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitda izlash zarurligini ta’kidlaydi. Ularning “Education for Justice” tashabbusi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ma’naviy madaniyatni oshirish orqali yoshlar ongini sog‘lomlashtirish, huquqiy va axloqiy javobgarlik hissini kuchaytirish orqali xavfsizlikka erishish mumkinligi ilmiy asosda bayon etilgan³. Xususan, “Pew Research Center va World Values Survey” ma’lumotlariga ko‘ra, jamiyatdagi

¹ Platon. Davlat / Rus tilidan U. Sodiqov tarjimasini. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2015. – 356 b.

² Rand Corporation. Community Policing and the Role of Civil Society. Santa Monica: RAND Publishing. – B. 45.

³ United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). (2022). Education for Justice Initiative Report. Vienna: UNODC. – B. 87.

siyosiy madaniyat darajasi yuqori bo'lgan hududlarda xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik indeksi ancha yuqori bo'ladi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, axborot davrida xavfsizlikning yangi paradigmasi shakllanmoqda. M. Kastells ta'kidlaganidek, "axborot maydonida hukmronlik qiluvchi kuchlar jamoat ongini nazorat qilish orqali xavfsizlik konsepsiyasini qayta ishlab chiqadi"¹. Dissertant bu fikrni rivojlantirib, xavfsizlikni "ijtimoiy konstruktsiya" sifatida talqin etadi va bu yondashuv jamoat xavfsizligini nafaqat davlatning funksional mexanizmi, balki ongli jamiyat qurishdagi mafkuraviy vosita sifatida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi deb hisoblaydi.

Jamoat xavfsizligi tushunchasi zamonaviy siyosiy-falsafiy tafakkur doirasida tobora murakkab tahliliy mezonlar asosida ko'rib chiqilmoqda. Bu tushuncha endilikda nafaqat huquqiy-institutsional kategoriyadir, balki mafkuraviy identifikatsiya, ijtimoiy ongni nazorat qilish va siyosiy legitimlikni ta'minlash vositasi sifatida ham o'z o'rniga ega. Shu sababli bu tushunchani oddiy texnik va repressiv vosita sifatida emas, balki jamiyatdagi mafkuraviy-axboriy muvozanat, fuqarolik madaniyati hamda hokimiyat legitimligining ifodasi sifatida talqin etish lozim.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlar masalasi alohida o'rin tutadi. Muallifga ko'ra, jamoat xavfsizligining asosiy poydevorlaridan biri sifatida siyosiy mafkura shunday tizimga aylanishi kerakki, u ijtimoiy guruhlar o'rtasida yagona identitetni shakllantira olsun. Ushbu fikrning zamirida xavfsizlikni mafkuraviy konsensus orqali ta'minlash g'oyasi yotadi, biroq bunday kommunikativ madaniyat hali to'liq shakllanmaganligi sababli, xavfsizlik masalalarida ko'proq vertikal (yuqoridan-pastga) boshqaruv tamoyillari ustuvor bo'lib qolmoqda.

Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlarni siyosiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Kopengagen maktabi vakillari (B. Buzan, O. Veyver va boshqalar) tomonidan ilgari surilgan xavfsizlashtirish nazariyasi bu borada muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nazariyaga ko'ra, biror masala xavfsizlik muammosiga aylanishi uchun, u avvalo xavfsizlashtirish jarayonidan o'tishi lozim. Mafkuraviy tahdidlar ham avtomatik ravishda xavfsizlik muammosi sifatida qabul qilinmaydi, balki ular jamiyat va davlat tomonidan xavfsizlikka tahdid sifatida anglanishi va tan olinishi kerak.

Dissertant tomonidan olingan natijalarga ko'ra, mafkuraviy omillar - bu jamiyatning ijtimoiy-madaniy immunitetidir. Ularning zaiflashuvi xavfsizlikni muayyan darajada yemiradi. Siyosiy-mafkuraviy omillarning o'z-o'zidan xavfsizlik kafolati sifatida talqin qilinishi ularni konservativ mafkura vositasiga aylantirishi mumkin. Aslida xavfsizlik - jamiyatdagi plyuralizm va tanqidiy tafakkurni inkor etmaydigan, balki inklyuziv siyosiy madaniyatga tayangan hodisa sifatida talqin qilinishi lozim.

¹ Castells M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell, 1997. – 496 p. – p. 157.

Bobda tadqiq etilgan asosiy masalalardan biri – bu jamoat xavfsizligini ta’minlashda siyosiy-mafkuraviy omillarning murakkab va ko‘p qirrali rolini aniqlashdir. Bu omillar bir tomondan, ijtimoiy barqarorlik, mafkuraviy birlik va milliy identitetni mustahkamlash funksiyalarini bajarsa, boshqa tomondan, aynan shu omillar ijtimoiy ziddiyatlarni yashirin tutish, muammolarni siyosiyashtirish va demokratik jarayonlarni sekinlashtirish vositasi bo‘lib qolishi mumkin. Bu borada Xabermasning kommunikativ harakat nazariyasi muhim metodologik asosdir. Xabermasning fikriga ko‘ra, “xavfsizlik faqat davlat boshqaruvi tizimi orqali emas, balki fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki va erkin muloqot maydonini yaratish orqali ta’minlanadi”¹.

Jamoat xavfsizligi masalasida umuminsoniy qadriyatlar, xususan, inson huquqlari, adolat, tenglik, bag‘rikenglik kabi tushunchalar asosida xavfsizlikni ta’minlash masalasi xalqaro xavfsizlik tadqiqotlari doirasida ham keng muhokama qilinmoqda. Dissertant Amartya Senning “Inson xavfsizligi inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish orqali ta’minlanadi”² degan g‘oyasini rivojlantirib, bu yondashuv xavfsizlik kategoriyasini texno-harbiy va politsiya nazorati konsepsiyasidan axloqiy-huquqiy paradigмага o‘tkazishini ta’kidlaydi.

Muallifning xulosalariga ko‘ra, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda xavfsizlik tushunchasini davlat va fuqarolik institutlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan umumiy konsepsiya sifatida talqin qilish kerak. Buning uchun birinchi navbatda, shaxsiy va jamoaviy xavfsizlik kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Siyosiy-mafkuraviy omillarning jamoat xavfsizligini mustahkamlashdagi ahamiyati - bu siyosiy madaniyat va mafkura o‘rtasidagi uzviylikni talab qiluvchi murakkab jarayon bo‘lib, unda nafaqat nazorat mexanizmlari, balki axloqiy-me’yoriy tizimlar, ijtimoiy ong, tarbiya, huquqiy madaniyat, madaniy xilma-xillik va inklyuzivlik g‘oyalari muhim rol o‘ynaydi. Xavfsizlikni siyosiy-mafkuraviy omillar bilan mustahkamlash - bu faqat mafkuraviy monopoliyani o‘rnatish emas, balki fuqarolik jamiyatida tanqidiy tafakkur va siyosiy plyuralizmni rivojlantirish, ochiq muloqot madaniyatini shakllantirish va ishtirokchi demokratik madaniyatni rivojlantirish orqali mustahkamlashni nazarda tutadi.

Bobdan olingan muhim xulosalardan yana biri shuki, siyosiy-mafkuraviy omillarning jamoat xavfsizligini mustahkamlashdagi ahamiyati bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalasi bo‘lib, bu sohada tizimli va uzluksiz tadqiqotlar olib borish, nazariy-metodologik asoslarni takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali milliy xavfsizlik tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Ayniqsa, globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda siyosiy-mafkuraviy omillarning o‘rni yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Habermas J. The Philosophical Discourse of Modernity. – Cambridge: Polity Press, 1990. – 162-bet

² Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – B. 35.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**O‘zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy-tashkiliy jihatlari**” deb nomlangan. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta‘minlash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvlarni talab qiladigan strategik vazifa hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning bu sohadagi sa’y-harakatlarining uyg‘unligiga bog‘liq.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli masalasi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot kontekstida murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, axborot jamiyatiga o‘tish, raqamli kommunikatsiyaning kengayishi va global qadriyatlar bilan milliy identitet o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash zarurati fonida fuqarolik jamiyati institutlari — nodavlat notijorat tashkilotlar, mustaqil OAV, diniy birliklar, mahalliy tashabbus guruhlari va ta‘lim muassasalari — jamiyatni mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati siyosiy mafkura va siyosiy madaniyatning ichki muvozanatini, axloqiy mezonlar orqali ijtimoiy ongning barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan.

Shveysariyalik siyosatshunos D.Heldning yozishicha: «Demokratiya faqat davlat organlarining ochiqligi emas, balki fuqarolik jamiyatining o‘zini boshqarishga qodir axloqiy tizimlar bilan qurollangan bo‘lishidadir»¹. Held nuqtai nazaridan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash — bu fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirishda axloqiy mezonlar asosida amalga oshiriladigan mustaqil va mas’uliyatli faoliyatdir.

BMTning «Civil Society and Development» (Fuqarolik jamiyati va hukumat) hisobotida esa quyidagicha xulosa mavjud: «Fuqarolik jamiyatining ta’siri shunchalik yuqori bo‘ladiki, u ijtimoiy qatlamlarning g‘oyaviy harakatini uyg‘otish, normativ barqarorlikni shakllantirish va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni ishlab chiqish salohiyatiga egadir»². Ushbu yondashuv, ayniqsa, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashga taalluqli bo‘lib, fuqarolik institutlarining faqat «ijrochi» emas, balki «yaratuvchi», «tanqidchi» va «muqobil takliflar beruvchi» sifatidagi roli e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli tobora ortib bormoqda. Shunga qaramasdan, bu borada hali hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud. Birinchidan, ko‘plab fuqarolik jamiyati institutlari moliyaviy mustaqillikka ega emas, bu esa ularning tashabbuskorligini cheklaydi. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi muloqot ko‘pincha bir tomonlama xarakterga ega bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari ko‘proq ijrochi vazifasini bajaradi. Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining professional salohiyati va resurs bazasi mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurash olib borish uchun yetarli emas.

¹ Held D. Democracy and the Global Order. – Cambridge: Polity Press, 1995. – B. 123.

² UNDP. Civil Society and Development Report 2021. – New York: UNDP, 2021. – B. 63.

Mafkuraviy tahdidlarni oldini olish va bartaraf etishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish; ikkinchidan, ularning professional salohiyatini oshirish uchun maxsus trening va seminarlar o'tkazish; uchinchidan, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ochiq muloqot va hamkorlik maydonini kengaytirish; to'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashdagi faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish; beshinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining mafkuraviy sohadagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish tizimida ta'lim, madaniyat va diniy-ma'rifiy muassasalar alohida o'rin tutadi. Bu muassasalar ijtimoiy ongni shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, yoshlarda sog'lom dunyoqarashni tarbiyalash jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Dissertant jamoat xavfsizligini ta'minlash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish tizimida ta'lim, madaniyat va diniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni va rolini alohida tadqiq qiladi. Bugungi mafkuraviy tahdidlar sharoitida ta'lim, madaniyat va diniy-ma'rifiy muassasalar oldida quyidagi muhim vazifalar turishini ta'kidlaydi:

- milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlikni targ'ib qilish - ta'lim, madaniyat va diniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarda milliy tarix, madaniyat va qadriyatlarga hurmat hissini, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalashi muhim ahamiyat kasb etadi;

- tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni rivojlantirish - bugungi kunda axborot manipulyatsiyasi va soxta axborot tarqatish sharoitida tanqidiy fikrlash va media savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning muhim vositasi hisoblanadi;

- madaniyatlararo muloqot va bag'rikenglikni rivojlantirish - turli madaniyatlar, dinlar va qadriyatlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirish, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni tarbiyalash ekstremistik g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

- ijtimoiy birlik va barqarorlikni mustahkamlash - ta'lim, madaniyat va diniy-ma'rifiy muassasalar jamiyatda ijtimoiy birlik va barqarorlikni mustahkamlash, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida totuvlik va hamjihatlikni rivojlantirishga hissa qo'shishi lozim.

Shu bilan birga, jamiyatni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda ta'lim tizimi orqali tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni rivojlantirish, madaniy muassasalar orqali milliy o'zlikni anglash va madaniy immunitetni kuchaytirish hamda diniy-ma'rifiy muassasalar orqali axloqiy-ma'naviy asoslarni mustahkamlash yagona maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari orqali mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash usullarini takomillashtirish masalasi bobda o'rganilgan asosiy yo'nalishlardan biridir. Globallashtirish va global axborotlashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayni paytda bu texnologiyalar nafaqat ijobiy imkoniyatlar, balki mafkuraviy tahdidlar manbaiga ham aylanmoqda. Mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bu davrda har bir inson, avvalo, o'z salohiyati, ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlash orqali o'zini himoya qila oladi.

Aksariyat soha mutaxassislari zamonaviy mafkuraviy tahdidlarni uch asosiy turga bo'lib o'rganishadi. Bu tasniflash global axborot makoni rivojlanib borgani sayin yanada dolzarblashmoqda, chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doimiy ravishda takomillashib, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish usullari ham murakkablashib bormoqda.

Birinchisi, algoritmik-manipulyativ tahdidlar — sun'iy intellekt algoritmlari, ixtisoslashtirilgan reklama va kontent tavsiya tizimlari orqali inson ongini boshqarish uchun yo'naltirilgan axborot strategiyalaridir. Bu tur tahdidlar natijasida inson o'z tanlovini erkin amalga oshirmaydi, balki algoritmik yo'naltirilgan kontent orqali muayyan qarashlarga ega bo'ladi.

Bu tahdid turi nisbatan yangi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, foydalanuvchi hatto manipulyatsiyaga uchrayotganini sezmaydi. Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari foydalanuvchilarning e'tiborini maksimal darajada tortish uchun yaratilgan bo'lib, ular foydalanuvchilar kayfiyatiga mos kontentni taqdim etish orqali ma'lum qarashlarni mustahkamlaydi. Olimlar bu jarayonni «axborot kamerasi»¹ (information bubble) deb ataydilar, chunki inson o'zi tushib qolgan axborot maydonidan chiqib keta olmaydi va faqat bir xil kontentga duch keladi.

Ikkinchisi, vizual-estetik tahdidlar — ko'rish-idrok qilish orqali insonning estetik va axloqiy me'yorlarini o'zgartirishga qaratilgan manipulyatsiyalar. YUNESKO hisobotida aytilganidek, «Ko'z bilan ko'rgan narsa qalbgga muhr bo'ladi. Agar bu muhrlar to'g'ri bo'lmasa, qalb ko'r bo'ladi»². Bu tur tahdidlar ayniqsa yoshlar orasida tez tarqalmoqda.

Vizual-estetik tahdidlarning xavfi shundaki, ular axloqiy va estetik normalarni asta-sekin o'zgartiradi. Tadqiqotchilar bu jarayonni «normallashtirish effekti» deb ataydilar — inson muayyan g'ayriaxloqiy yoki estetik jihatdan nomaqbul obrazlarni ko'p ko'rish natijasida bu obrazlarga nisbatan sezuvchanligini yo'qotadi. Ayniqsa bugungi vizual kommunikatsiyaga asoslangan ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, TikTok, YouTube) bu tahdid uchun qulay platformaga aylangan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, vizual axborotni qabul qilish jarayonida

¹ Algorithmic Manipulation and Information Science: Media Theories and Cognitive Warfare in Strategic Communication. Journal of European Media Studies, 2024;12(3):189-214.

² UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. Paris: UNESCO Publishing, 2021. - p. 148. [Электрон ресурс] - Кириш режими: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377068>

inson tanqidiy fikrlash qobiliyatini kam qo‘llaydi, chunki obrazlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsional holatga ta‘sir qiladi.

Uchinchi, diskursiv-konseptual tahdidlar — nutq, til va tushunchalar orqali milliy dunyoqarash, fikrlash tarzi va ijtimoiy pozitsiyalarni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan tahdidlar. Bunda chet el manbalaridan olingan tushunchalar, g‘oyalar va nazariyalar milliy kontekstdan ajratilgan holda taqdim etiladi, bu esa ma‘naviy-madaniy begonalashuvga olib keladi.

Dissertantga ko‘ra, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning eng samarali usullaridan biri raqamli savodxonlikni oshirishdir. Raqamli savodxonlik bugungi kunda faqat texnik ko‘nikmalarni emas, balki g‘oyaviy-axloqiy mas‘uliyatning yangi shaklini ham o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalarga ega bo‘lish fuqarolarga virtual makondagi tahdidlarni aniqlash, axborotni tanqidiy baholash va g‘arazli kontentga qarshi tura olish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida milliy axborot makonini mustahkamlash uchun bir qator muhim yo‘nalishlarda ish olib borish zarur. Bular: milliy onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi raqamli kontentni ko‘paytirish, milliy tilda sifatli ma‘lumotlar bazasini kengaytirish va milliy kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirishdir. Zamonaviy axborot makonida milliy kontentning yetarli darajada bo‘lmasligi axborot bo‘shlig‘i yuzaga kelishiga, bu esa o‘z navbatida tashqi manbalardan kirib keladigan g‘oyalar ta‘sirining kuchayishiga olib keladi. Shuning uchun ham milliy axborot resurslari va platformalarini rivojlantirish mafkuraviy xavfsizlikni ta‘minlashning eng muhim vositasidir.

Ishning uchinchi bobi “**Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishlari**” deb nomlangan. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta‘minlash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat mustaqilligining dastlabki yillaridan buyon izchil rivojlantirib kelinmoqda. Bu jarayonlar global axborot makoni va dunyoda yuz berayotgan murakkab siyosiy jarayonlar sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallifning ta‘kidlashiga ko‘ra, mafkuraviy xavfsizlikni ta‘minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari bilan uyg‘un tarzda amalga oshirilishi lozim. Shundagina qonunchilik jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlashda samarali vositaga aylanadi.

Uchinchi bobda alohida o‘rganilgan mavzulardan yana biri - mafkuraviy tahdidlarni erta aniqlash va oldini olish jamoat xavfsizligini ta‘minlashning preventiv omili masalasidir. Bugungi kunda «mafkuraviy tahdid» tushunchasi keng ma‘noda qo‘llanilib, u nafaqat tor doiradagi mafkuraviy kurashlarni, balki global miqyosdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy va ma‘naviy jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu boisdan, mafkuraviy tahdidlarga nisbatan kompleks

yondashuv asosida ularning salbiy ta'sirini oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish davr talabiga aylanmoqda. Hozirgi sharoitda mafkuraviy tahdidlarni erta aniqlash va ularga qarshi o'z vaqtida chora ko'rish, jamiyat ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish yangi darajaga ko'tarilgan tizimli ishlarni talab etmoqda.

“Preventiv” tushunchasi lotincha «praevenio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “oldini olish”, “to'siq qo'yish” degan ma'nolarni anglatadi. Ijtimoiy-siyosiy sohada preventiv choralar - bu muammolar yuzaga kelishidan oldin ularni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan preventiv yondashuv – bu mafkuraviy tahdidlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muhitni o'rganish, tahlil qilish, ularni erta aniqlash hamda ularning salbiy ta'siri yuzaga kelmasidan oldin bartaraf etish choralarini ko'rishni o'z ichiga oladi. Preventiv choralar aksariyat hollarda reaktiv yondashuvdan (ya'ni, yuzaga kelgan muammolarga nisbatan javob choralarini ko'rishdan) samaraliroq bo'lib, jamiyat barqarorligini saqlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Dissertatsiyada mafkuraviy tahdidlarni oldini olishning xalqaro tajribasi alohida tadqiq qilingan bo'lib, bu borada AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Singapur kabi davlatlardagi o'ziga xos jihatlar ko'rsatib berilgan hamda xalqaro tajribaning milliy xususiyatlarga mos jihatlarini o'zlashtirishga doir qarashlar ilgari surilgan.

O'zbekiston sharoitida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning xalqaro tajribasini quyidagi yo'nalishlarda qo'llash maqsadga muvofiq:

- media savodxonlikni oshirish dasturlarini keng joriy etish. AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda aholi, ayniqsa yoshlar orasida media savodxonlikni oshirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Media savodxonlikni oshirish orqali aholining yot va zararli g'oyalarga qarshi immunitetini kuchaytirish mumkin, bu esa mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali vositasi hisoblanadi;

- milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish, yangi yuzaga kelayotgan tahdidlarga samarali javob bera oladigan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur;

- xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Mafkuraviy tahdidlarning transchegaraviy xususiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda, O'zbekiston uchun bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda O'zbekiston uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bobda dissertant tomonidan ilgari surilgan asosiy g'oyalardan biri - jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning istiqbolli strategiyasini ishlab chiqishga doir tavsiyalardir. Jamiyat xavfsizligini

ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning istiqbolli strategiyasini ishlab chiqish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, zamonaviy xalqaro tajriba, milliy manfaatlar va mavjud imkoniyatlarni hisobga olishni talab etadi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi fuqarolarning, jamiyatning va davlatning mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash, mafkuraviy tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini yaratishdan iborat.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning istiqbolli strategiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

✓ ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim sohasidagi chora-tadbirlar: Bu yo'nalishda milliy g'oya va qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta'lim tizimida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va axborot madaniyatini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish muhim o'rin tutadi;

✓ axborot siyosati sohasidagi chora-tadbirlar: Bu yo'nalishda axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot makonini sog'lomlashtirish, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi destruktiv g'oyalar va ma'lumotlar tarqalishining oldini olish, ommaviy axborot vositalari orqali mafkuraviy immunitetni oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish muhim o'rin tutadi;

✓ huquqiy sohadagi chora-tadbirlar: Mazkur yo'nalishda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ekstremizm, terrorizmni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatishga qarshi kurashish mexanizmlarini yaratish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yish muhim o'rin tutadi. Bu borada davlatlar mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishda xalqaro standartlarga va inson huquqlariga rioya qilishlari muhim ahamiyatga ega. Bunday qonunchilikda ifoda erkinligi, axborot olish huquqi va xavfsizlik masalalarini mutanosib tarzda tartibga solish zarur;

✓ institutsional sohadagi chora-tadbirlar: Bu yo'nalishda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiruvchi va monitoring qiluvchi institutlarni takomillashtirish, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim o'rin tutadi;

✓ xalqaro hamkorlik sohasidagi chora-tadbirlar: Ushbu yo'nalishda mintaqaviy va xalqaro darajada mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish, ilg'or amaliyotlarni o'rganish va qo'llash muhim o'rin tutadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

1) Bugungi globallashtirish sharoitida mafkuraviy tahdidlar jamoat xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa vositalar orqali turli destruktiv g'oyalar, ekstremistik, separatistik va terroristik mafkuralar keng tarqatilmogda. Bu esa

jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning istiqbolli strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

2) O'zbekistonda «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» va «O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlash, jumladan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada milliy g'oya va qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, huquqiy asoslarni takomillashtirish va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

3) Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning istiqbolli strategiyasi kompleks xarakterga ega bo'lishi, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy, axborot, huquqiy, tashkiliy va xalqaro hamkorlik sohalaridagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi zarur. Shuningdek, ushbu strategiyani amalga oshirishda komplekslik, profilaktika, differensial yondashuv, ochiqlik va shaffoflik hamda samaradorlikni baholash prinsiplarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

4) Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalla instituti, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta'minlash muhim. Bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish zarur.

5) jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy tuzilmalar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitlarga moslashtirib qo'llash zarur.

6) Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning istiqbolli strategiyasini amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlarini keng yo'lga qo'yish, zamonaviy mafkuraviy tahdidlarning xususiyatlari, namoyon bo'lish shakllari va ta'sir mexanizmlarini o'rganish, ularga qarshi kurashish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

“Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jamoat xavfsizligi tushunchasi zamonaviy siyosiy-falsafiy talqinda faqat huquqiy-funksional kategoriya emas, balki jamiyatning g'oyaviy shakllanish darajasini aks ettiruvchi mafkuraviy maydon, ijtimoiy ongning shakllantiruvchi diskurs va siyosiy madaniyat mezoni sifatida qaralishi lozim. Bu konsepsiya

dialektikaning umumiylik, xususiyluk va alohidalik kategoriyalari tamoyillariga binoan tasniflanib, «xavfsizlik» umumiy tushuncha, «milliy xavfsizlik» xususiyluk, «ijtimoiy xavfsizlik», «iqtisodiy xavfsizlik», «siyosiy xavfsizlik», «ma'naviy xavfsizlik», «mafkuraviy xavfsizlik» kabi alohida komponentlarni o'z ichiga oladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash faqat tahdidlarga javob berish emas, balki ongli va axloqiy fuqarolik jamiyatini shakllantirish, tanqidiy tafakkurga yo'l ochish orqali ro'yobga chiqishi zarur.

2. Zamonaviy sharoitda mafkuraviy tahdidlar o'zining transformatsion dinamikasi, gibrud xarakteru va ta'sir mexanizmlari bilan ajralib turadi. Globallasuv va raqamlashtirish jarayonlari kuchayib borishi jarayonida mafkuraviy tahdidlar tezlik bilan o'zgarib, yangi shakllarga kirib, adaptiv xususiyatlar kasb etadi. Mafkuraviy tahdidlar faqat an'anaviy ideologik qarama-qarshiliklar shaklida emas, balki gibrud xarakterdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy va madaniy muammolar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kompleks ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Bu holat mafkuraviy tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish va ularga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda integrativ metodologik yondashuvlarni talab qiladi.

3. Tadqiqot markazida turgan «mafkuraviy xavfsizlik» atamasi siyosiy xavfsizlik paradigmasining mustaqil tarkibiy qismi sifatida ilmiy muomalaga kiritilib, xavfsizlik faqat tashqi tahdidlarga nisbatan reaksiya emas, balki ichki — ong, axloq va mafkuraviy muvozanatning barqarorligi bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy holat sifatida qayta tadqiq qilindi. Mafkuraviy xavfsizlik milliy qadriyatlar, axloqiy normalar, diniy-ma'rifiy an'analar va madaniy o'ziga xoslikni saqlash orqali jamiyat mafkuraviy immunitetini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu konsepsiya, ayniqsa, globallasuv, migratsion oqimlar, axborot xuruji va mafkuraviy diversifikatsiya sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

4. Mafkuraviy tahdidlarni baholash va monitoring qilishning samarali usullari asosida xavfsizlikka tahdid darajalari – «risk», «chaqiruv», «xavf» va «tahdid» tushunchalari qo'llanilgan besh pog'onali rangli gradatsiya tizimi (yashil-qizil oralig'i) ishlab chiqildi. Bu tizim jamiyat xavfsizligiga yo'naltirilgan tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda preventiv chora-tadbirlar ko'rish imkonini beradi. Mafkuraviy tahdidlarni baholashda sifat va miqdor ko'rsatkichlarini birlashtirgan kompleks yondashuvni qo'llash, tahdid darajasi, tarqalish dinamikasi, maqsadli auditoriya va potensial zarar ko'lamini inobatga olish zarur.

5. O'zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning tashkiliy mexanizmlarini kompleks tahlil qilish asosida mavjud tizimning afzalliklari va muammolari aniqlandi. Bugungi kunda mamlakatda preventiv siyosiy reguliyativ, operativ institutsional va strategik siyosiy darajadagi mexanizmlar faol qo'llanilmoqda. Bu mexanizmlar davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va diniy-ma'rifiy tashkilotlarning o'zaro samarali hamkorligiga asoslangan bo'lib, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayni paytda mazkur tizimning

samaradorligini oshirishda koordinatsion jarayonlarni takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ilmiy-nazariy bazani kuchaytirish zarur.

6. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish tizimida ta'lim, madaniyat va diniy-ma'rifiy muassasalar alohida ahamiyatga ega. Bu muassasalar ijtimoiy ongni shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, yoshlarda sog'lom dunyoqarashni tarbiyalash jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimi tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, mafkuraviy immunitet va media savodxonlikni rivojlantirish orqali yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilishi lozim. Diniy-ma'rifiy muassasalar esa an'anaviy qadriyatlarni saqlash, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash orqali jamiyat mafkuraviy barqarorligiga hissa qo'shadi.

7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi va raqamli makon kengayishi sharoitida mafkuraviy tahdidlar yangi shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalar va raqamli OAV mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalariga aylanib bormoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash va kibermakonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish strategiyasi milliy axborot makonini mustahkamlash, media savodxonlikni oshirish, axborotni tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv g'oyalarga qarshi kurashish tizimini yaratish, shuningdek, axborot xavfsizligi sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

8. Siyosiy-mafkuraviy omillarning jamoat xavfsizligini mustahkamlashdagi ahamiyati - bu siyosiy madaniyat va mafkura o'rtasidagi uzviylikni talab qiluvchi murakkab jarayon bo'lib, unda nafaqat nazorat mexanizmlari, balki axloqiy-me'yoriy tizimlar, ijtimoiy ong, tarbiya, huquqiy madaniyat, madaniy xilma-xillik va inklyuzivlik g'oyalari muhim rol o'ynaydi. Siyosiy-mafkuraviy omillar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy identiteti va ijtimoiy immunitetini tashkil etadi. Xavfsizlikni siyosiy-mafkuraviy omillar bilan bog'lash jamiyatda ochiq muloqot, plyuralizm va ishtirokchi demokratik madaniyatni rivojlantirish orqali mustahkamlashni nazarda tutadi. Xavfsizlikni ta'minlashning bunday inklyuziv modeli, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlab, mamlakatdagi siyosiy madaniyatni tubdan yuksaltirish imkoniyatini yaratadi.

Keltirilgan ilmiy-nazariy xulosalardan quyidagi amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi:

*Birinchi*dan, O'zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga «Mafkuraviy xavfsizlik» bo'limini kiritish, bo'limda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari, ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalari, shuningdek, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlari va institutsional asoslari belgilab berilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmonidan kelib chiqib, ushbu tavsiya mamlakatda

jamoat xavfsizligini ta'minlashning mavjud tizimini mafkuraviy himoya komponenti bilan to'ldirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mafkuraviy tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish va prognozlashtirish bo'yicha ixtisoslashgan "Mafkuraviy xavfsizlik monitoringi milliy markazi"ni tashkil etish, bu markaz mafkuraviy tahdidlarni baholash va monitoring qilishning kompleks tizimini yaratish, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar asosida ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarni aniqlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va davlat organlariga tavsiyalar ishlab chiqish natijadorlikka xizmat qiladi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish" dasturini ishlab chiqish, dasturning bosh mazmuni sifatida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va media savodxonlik, mafkuraviy tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi turish ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy g'oya va vatanparvarlik bo'yicha interaktiv dasturlar hamda mutaxassislarni o'qitish masalalari qamrab olinishi lozim.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamkorligida "Milliy axborot makonini mustahkamlash strategiyasi"ni ishlab chiqish, ushbu strategiya orqali milliy axborot resurslari va kontentni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, feyk xabarlar va dezinformatsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Beshinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish uchun mahalla instituti imkoniyatlaridan foydalanib joylarda mafkuraviy tarbiya dasturlarini amalga oshirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining mafkuraviy xavfsizlikka qaratilgan loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish, yoshlar tashkilotlarini mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish jarayonlariga yanada kengroq jalb etish hamda fuqarolik jamiyati va davlat organlari o'rtasida muntazam muloqot platformasini yaratish lozim.

Oltinchidan, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish masalalari bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy davlatlar bilan mafkuraviy xavfsizlik sohasida tajriba almashish va qo'shma dasturlarni amalga oshirish, transmilliy mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish tashabbuslarini ilgari surish hamda ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish yo'nalishlarida ish olib borish kutilgan natijani beradi.

Yettinchidan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish doirasida fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning psixologik barqarorligini mustahkamlash dasturlarini ishlab

chiqish, mafkuraviy tahdidlarning psixologik ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, psixologik xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish orqali mafkuraviy ta'sirga tushib qolgan shaxslarga yordam ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish hamda mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha manzilli dasturlarni ishlab chiqish mavjud muammoning yechimi bo'lib xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/28.06.2024.Ss.178.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ПОВЫШЕНИЯ
КВАЛИФИКАЦИИ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИНСТИТУТ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ МИНИСТЕРСТВА
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА**

РУЗИЕВА ГУЛСАНАМ СУЛТОНМУРОДОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ
ИДЕОЛОГИЧЕСКИМ УГРОЗАМ В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

23.00.03 – Политическая культура и идеология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по политическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (Phd) по политическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером В2023.4.PhD/Ss451.

Диссертация выполнена в Институте повышения квалификации Министерства внутренних дел Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (<http://ipkmvd.uz>) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Ражабов Хабибулла Ибодуллаевич**
доктор политических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты: **Тургунова Насиба Гуйчиевна**
доктор политических наук (DSc), доцент
Davidov Umidjon Xasan o'g'li
политических наук кандидат фил. (PhD), доцент

Ведущая организация: **Университет общественной безопасности**
Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.31/28.06.2024.Ss.178.01 при Институте повышения квалификации МВД Республики Узбекистан «_____» _____ 2025 года в _____ часов. (Адрес: 100213, город Ташкент, Бектемирский район, улица Хусейна Байкаро, 27а. Тел.: (71) 295-34-18, факс: (71) 295-34-19, e-mail: moi@iiv.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 100213, город Ташкент, Бектемирский район, улица Хусейна Байкаро, 27а. Тел.: (71) 295-34-18.)

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2025 года).

Ш.И.Пахрутдинов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор.

С.М.Рахмонов

Научный секретар научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н (DSc), доцент

Ф.Ф.Хатамов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современный период, когда процессы глобализации в мире активизируются, идеологические угрозы представляют собой серьёзную опасность для общественной безопасности. Развитие информационных технологий, распространение социальных сетей и СМИ расширяют возможности идеологического воздействия, способствуют распространению различных экстремистских, радикальных и деструктивных идей, идеологических атак против национальных ценностей, а также попыткам завоевания сознания молодёжи — всё это непосредственно угрожает общественной безопасности. Это вызывает необходимость научного исследования, систематизации и совершенствования механизмов противодействия идеологическим угрозам.

Именно поэтому вопрос роли идеологической и духовно-ценностной сферы в обеспечении общественной безопасности и повышения её эффективности требует глубокой научной проработки в рамках политических наук. Международные исследования показывают, что уровень безопасности и методы его обеспечения значительно различаются в разных странах. Это наглядно демонстрирует необходимость синхронизации глобальных и локальных подходов к обеспечению общественной безопасности и учёта идеологических факторов.

В нашей стране духовно-идеологические ценности и психологическая устойчивость способствуют повышению стрессоустойчивости сотрудников правоохранительных органов, улучшают их профессиональную эффективность и укрепляют взаимодействие с общественностью. Всё это, в свою очередь, является ключевым фактором обеспечения общественной безопасности. Повышение политической сознательности граждан, их вовлечённости и социальной ответственности способствует укреплению стабильности и безопасности в обществе. Это важно не только для эффективной работы правоохранительных органов, но и для обеспечения общей гармонии и мира.

Таким образом, проведение глубоких научных исследований в области политической культуры и идеологии, разработка практических рекомендаций и их внедрение — одна из первых задач нашего времени. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш. Мирзиёев: «В настоящее время сложившиеся в условиях современности вызовы требуют ещё более остро решать задачи обеспечения спокойной и безопасной жизни, гарантированной безопасности народа»¹.

Управление ООН по наркотикам и преступности (UNODC) также связывает концепцию безопасности с духовностью, подчёркивая необходимость поиска корней преступности в идеологической и

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // URL - <http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-taminlash> yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi --07-12-2016

социально-экономической среде. В рамках инициативы «Education for Justice» их исследования научно демонстрируют возможность обеспечения безопасности через повышение духовной культуры, укрепление правовой и нравственной ответственности молодёжи¹.

Согласно данным Pew Research Center и World Values Survey, в регионах с высоким уровнем политической культуры наблюдается значительно более высокий индекс безопасности и социальной стабильности.

На Генеральной Ассамблее ООН 12 декабря 2018 года была принята специальная резолюция «О просвещении и религиозной толерантности», а также иные нормативно-правовые акты Республики Узбекистан: Закон «О государственной молодёжной политике» (14 сентября 2016 г.), постановления PF-5416 (от 16 апреля 2018 г. «О коренном совершенствовании деятельности в религиозно-просветительской сфере»), PF-60 (от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития Новой Узбекистан на 2022–2026 гг.»), PF-158 (11 сентября 2023 г. «Стратегия „Узбекистан-2030“»), постановления PQ-3160 (28 июля 2017 г. «О повышении эффективности духовно-идеологической работы...»), PQ-4307 (3 мая 2019 г. «О дополнительных мерах...»), PQ-5040 (26 марта 2021 г. «О коренном совершенствовании системы духовно-идеологической работы»), а также Указы F-5465 (8 апреля 2019 г. «О разработке концепции национальной идеи в новой фазе развития Узбекистана»), и другие нормативные акты, реализация задач которых данная диссертация содействует.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в рамках приоритетного направления I развития науки и технологий республики: «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Вопрос совершенствования механизмов противодействия идеологическим угрозам в обеспечении общественной безопасности изучался в научной литературе на разных уровнях и в различных направлениях. Существующие исследования можно условно разделить на три группы.

К первой группе относятся работы зарубежных авторов, в частности представителей западных научных школ, в которых рассматриваются вопросы идеологии, безопасности, общественной безопасности и их взаимосвязи. В этом направлении имеют большое значение труды таких учёных, как Э. Тоффлер, М. Кастелс, Ю. Хабермас, А. Тойнби, У. Бек, Э.

¹ United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). (2022). Education for Justice Initiative Report. Vienna: UNODC. – В. 87.

Хейвуд, Б. Андерсон, З. Бауман, М. Уолцер, А. Вендт, Б. Бюзен, Р. Белла, Дж. Ролз, К. Гирц, М. Фуко, Д. Байман, А. Харел, Дж. Марквардт и других¹.

В частности, Э. Тоффлер исследовал механизмы управления миром в современных обществах на основе знаний и информации, тогда как М. Кастелс в рамках концепции информационного и сетевого общества анализировал вопросы идеологической идентичности. Ю. Хабермас, предложив концепцию коммуникативного разума, связал общественную безопасность с коммуникативной безопасностью.

Ко второй группе можно отнести работы исследователей из стран СНГ. В этих странах также активно изучаются аспекты безопасности, связанные с идеологией. В этом направлении важными являются исследования таких учёных, как Ю. Нисневич, Г. Попов, И. Панарин, А. Торкунов, В. Липкан, Б. Айтжанов, С. Кургинян, П. Дронов, А. Чесноков, А. Кинякин, К. Ясперс, Н. Патрушев, А.В. Лубский, М.И. Кузнецова, А.В. Мелников, А.В. Рудаков, М.Н. Дудин, Н.В. Лясников, В.Н. Сидоренко и другие².

Наконец, к третьей группе относятся научные труды, посвящённые исследованию роли идеологии в обеспечении общественной безопасности в Республике Узбекистан и приоритетных направлений государственной

¹ Toffler A. Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century. – New York: Bantam Books, 1990. – 560 p. – p. 145.; Castells M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell, 1997. – 496 p. – p. 157.; Habermas J. The Philosophical Discourse of Modernity. – Cambridge: Polity Press, 1990.; Toynbee A. A Study of History. – Oxford: Oxford University Press, 1948. – Vol. V. – p. 158; Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage Publications, 1992. – 260 p. – p. 21.; Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p. – p. 125.; Walzer M. Arguing About War. – New Haven: Yale University Press, 2004. – 208 p. – p. 154.; Wendt A. Social Theory of International Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 429 p. – p. 247.; Buzan B. People, States and Fear: An Agenda for International Security Studies in the Post-Cold War Era. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 1991. – 318 p. – p. 119.; Bellah R. Habits of the Heart: Individualism and Commitment in American Life. – Berkeley: University of California Press, 1985. – 355 p. – p. 284.; Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971; Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973.; Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – New York: Vintage Books, 1995.; Byman D. Terrorism in the Age of Globalization. Washington: Brookings Institution, 2021. P. 87-88. ; Harel A. A Threat to Cohesion: Intragroup Affective Polarization in Ideological Contexts. //Journal of Conflict Resolution. 2024;68(1):112-136.; Marquardt J. Institutionalizing climate change mitigation in the Global South: //Challenges and opportunities. International Journal of Sustainable Development. 2023;26(1):87-99.

